

KLINIK OQUV BAZALARINI XALQARO TALABLARGA MOSLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Qoqon Universiteti Andijon filiali

Davolash ishi 1-kurs talabasi

Tursunova Kumushoy Umidjon qizi

Email:tursunovakumushoy2@gmail.com

[Tel:+998889927879](tel:+998889927879)

Ilmiy raxbar: Aripova Nargiza Kazbekovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy ta'lim tizimida klinik o'quv bazalarini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilishning dolzarb masalalari yoritilgan. Klinik amaliyot jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish va o'quv bazalarini xalqaro akkreditatsiya talablariga moslashtirishning afzalliklari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida klinik o'quv jarayonini takomillashtirish yo'llari, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish zaruriyati va sifatli ta'lim uchun infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha takliflar keltirilgan. Tadqiqot natijalari tibbiy ta'limni modernizatsiya qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Klinik o'quv bazasi, xalqaro standartlar, tibbiy ta'lim, akkreditatsiya, amaliy ko'nikma, modernizatsiya, sifatli ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы модернизации клинических учебных баз в системе медицинского образования в соответствии с международными стандартами. Проанализированы преимущества применения современных технологий в клинической практике, повышения практических навыков студентов и приведения учебных баз в соответствие с требованиями международной аккредитации. Также представлены пути совершенствования клинического учебного процесса в медицинских вузах Узбекистана, необходимость внедрения передового

зарубежного опыта и предложения по развитию инфраструктуры для обеспечения качественного образования. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для модернизации медицинского образования.

Ключевые слова: Клиническая учебная база, международные стандарты, медицинское образование, аккредитация, практические навыки, модернизация, качественное образование, инновационные технологии.

Annotation: This article highlights the urgent issues of modernizing clinical training bases in the medical education system in accordance with international standards. The advantages of applying modern technologies in clinical practice, improving students' practical skills, and aligning training bases with international accreditation requirements are analyzed. The article also presents ways to improve the clinical training process in medical universities of Uzbekistan, the necessity of introducing advanced foreign experience, and proposals for developing infrastructure to ensure high-quality education. The research results have important theoretical and practical significance in the modernization of medical education.

Keywords: Clinical training base, international standards, medical education, accreditation, practical skills, modernization, quality education, innovative technologies.

Kirish: Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri - xalqaro talablarga javob beruvchi, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Bugungi kunda tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni global miqyosda dolzarb masalaga aylanmoqda. Sog'liqni saqlash tizimida raqobatbardosh, yuqori malakali va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashda klinik o'quv bazalarining o'rni beqiyosdir. Chunki aynan klinik baza talabalarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni o'zlashtirish va kasbiy malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida klinik amaliyotni takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va zamonaviy texnologiyalarni

ta'lim jarayoniga jortish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, ayrim klinik o'quv bazalarining moddiy-texnik bazasi, o'quv-uslubiy resurslari va xalqaro akkreditatsiya talablari bilan uyg'unligi yetarli darajada emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur holat tibbiyot oliygohlari oldiga klinik o'quv bazalarini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, amaliyotda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va o'qituvchilarning malakasini oshirish kabi muhim vazifalarni qo'yadi. Shu boisdan, klinik o'quv bazalarini xalqaro talablarga moslashtirish masalasi nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki xalqaro miqyosda tan olingan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida klinik o'quv bazalarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish zaruriyatini asoslash, mavjud, muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari tibbiy ta'lim sifatini oshirish va xalqaro akkreditatsiya jarayonlarida samarali ishtirok etish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

1. Klinik o'quv bazalarining tibbiy ta'limdagi roli:

Klinik o'quv bazalari tibbiyot ta'limi tizimida markaziy o'rin tutadi. Ular talabalarga nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash imkoniyatini beradi, bemor bilan bevosita ishlash tajribasini oshiradi va kasbiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Klinik bazalar orqali talaba, tashxis qo'yish va davolash usullarini tanlash, bemor bilan muloqot qilish va profilaktik choralarni amalga oshirish, tibbiy axloq va etik me'yorlarni amalda qo'llash, jamoaviy ish va klinik kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bois, klinik baza talabalarining kasbiy tayyorgarligi va tibbiyot oliygohi tomonidan tayyorlanadigan mutaxassis sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

2. Xalqaro standartlar va akkreditatsiya talablari:

Klinik o'quv bazalarini baholashda xalqaro tashkilotlar (WFME, WHO) tomonidan ishlab chiqilgan standartlar muhim ahamiyatga ega. Bu standartlar klinik bazaning moddiy-texnik ta'minoti, o'qituvchilarning malakasi, o'quv jarayonining samaradorligi va bemor xavfsizligini o'lchash mezonlarini belgilaydi.

Xalqaro akkreditatsiya talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi, o'quv dasturlarining xalqaro miqyosdagi mosligi, talabalarining amaliy mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalar va simulyatsion markazlardan foydalanish, o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirib boorish, klinik amaliyot jarayonida bemor xavfsizligi va etik me'yorlarga rioya qilish.

Xalqaro standartlarga moslash orqali ta'lim sifati oshadi, bitiruvchilarning xalqaro miqyosda tan olinish imkoniyati oshadi va tibbiyot oliygohlari akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tadi.

3. O'zbekiston tibbiyot oliygohlaridagi hozirgi holat:

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda klinik o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan yangi simulyatsion markazlar tashkil etilmoqda, o'quv dasturlari xalqaro talablarga moslashtirilmoqda, o'qituvchilar malakasi oshirilmoqda.

Shunga qaramay, ayrim klinik bazalarda hali ham quyidagi muammolar mavjud, zamonaviy texnik jihozlar yetishmasligi, amaliy mashg'ulotlarni nazorat qilish tizimining cheklanganligi, raqamli platformalar va simulyatsion o'quv uslublari yetarli darajada joriy etilmaganligi, xalqaro tajribaga asoslangan metodlarning yetarlicha qo'llanilmasligi.

Bu holatlar talabalarining amaliy tayyorgarligini pasaytiradi va tibbiy ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Muammolarni tahlil qilish

Klinik o'quv bazalarini rivojlantirishda quyidagi tizimli kamchiliklar aniqlangan:

1. Texnik baza eskirgan va zamonaviy uskunalar yetarli emas;
2. O'quv dasturlarining xalqaro standartlarga to'liq mos emasligi;
3. O'qituvchilarning xalqaro malaka sertifikatlariga ega bo'lish darajasi past;

4. Raqamli ta'lim platformalarining yetishmasligi;
5. Bemor xavfsizligi va etik me'yorlar bo'yicha barqaror tizim yo'qligi.

Ushbu omillar tibbiy ta'lim sifatini pasaytiradi, talabalar amaliy ko'nikmalarni chuqur egallay olmaydi va xalqaro akkreditatsiya jarayonlariga tayyor emas.

Xorijiy tajriba: Dunyo miqyosida ilg'or tibbiyot oliygohlari klinik o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar, simulyatsion ta'lim usullari va raqamli platformalardan keng foydalanmoqda. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlarda tibbiy ta'lim jarayonining 40-60 foizi simulyatsion mashg'ulotlarga ajratiladi. Bu jarayon talabalarni real klinik muhitga tayyorlaydi, ularning tahliliy fikrlashini, muammolarni tez hal qilish qobiliyatini oshiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, klinik o'quv bazalarining muvaffaqiyati quyidagi asosiy omilga tayanadi, klinik o'quv bazalarini zamonaviy tibbiy texnologiyalar bilan ta'minlash, amaliy mashg'ulotlarda virtual bemorlar va simulyatsion modellarni qo'llash, xalqaro akkreditatsiya tizimi asosida sifatni nazorat qilish, o'qituvchilarni muntazam malaka oshirish dasturlariga jalb etish.

Bunday yondashuv natijasida xorijiy universitetlar bitiruvchilari nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham yuqori malakali mutaxassis sifatida tan olinadi.

Klinik ta'limda ilg'or pedagogik metodlar: Bugungi kunda klinik ta'limni zamonaviylashtirishda bir qator innovatsion metodlardan foydalanilmoqda. Ulardan eng samaralilari quyidagilardir:

Simulyatsion mashg'ulotlar: talabalar real klinik vaziyatlarni sun'iy muhitda sinovdan o'tkazadi, bu ularga xatolardan o'rganish imkonini beradi.

OSCE (Objective Structured Clinical Examination): xalqaro miqyosda talabalarining amaliy ko'nikmalarini baholashning eng ishonchli usuli sifatida e'tirof etilgan.

Virtual klinik treninglar: kompyuter dasturlari orqali virtual bemorlar bilan ishlash, tashxis qo'yish va davolash usullarini tanlashni o'rganish.

Interfaol o'qitish usullari: muammoli holatlar tahlili, guruhli muhokama, rolik va multimedia vositalaridan foydalanish.

Multidisiplinar o'qitish: talabalarni turli tibbiy sohalar mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlashga o'rgatish. Bu usullar talabalarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, tahliliy yondashuv va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'zbekiston sharoitida takomillashtirish bo'yicha takliflar:

O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida klinik o'quv bazalarini xalqaro talablarga moslashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

1. Texnik jihozlarni yangilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Klinik bazalar raqamli diagnostika apparatlari, virtual simulyatorlar va interaktiv o'quv tizimlari bilan ta'minlanishi kerak.

2. Raqamli ta'lim muhitini yaratish.

"Virtual klinika" platformalarini tashkil etish orqali talabalar mustaqil mashq qilish imkoniga ega bo'lishlari zarur.

3. O'qituvchilarning xalqaro malaka oshirishini tizimlashtirish.

Ularni chet eldagi ilg'or o'quv markazlarida tajriba almashishga yuborish, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash kerak.

4. Chet el universitetlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Qo'shma ilmiy loyihalar, onlayn kurslar va akademik almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish.

5. Sifatni baholash va akkreditatsiya tizimini kuchaytirish.

Har bir klinik baza uchun xalqaro mezonlarga mos baholash tizimini joriy etish, doimiy monitoringni amalga oshirish. Mazkur takliflarni amalga oshirish orqali tibbiyot oliygohlarida klinik o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, xalqaro akkreditatsiyaga erishish va tibbiy ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish mumkin bo'ladi.

Xorijiy tajribalarni o'rganish asosida aniqlanishicha, ilg'or tibbiyot oliygohlari klinik o'quv bazalarini mustaqil amaliy laboratoriyalar sifatida rivojlantirib, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ham jalb etgan. Bu yondashuv ta'lim, amaliyot va ilmiy izlanishlarning integratsiyasini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston tibbiyot oliygohlari uchun quyidagi amaliy xulosalar ishlab chiqildi, klinik o'quv bazalarini xalqaro tajribaga tayangan

holda modernizatsiya qilish, klinik ta'limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar bo'yicha qayta tayyorlash, sifat monitoringi va akkreditatsiya tizimini doimiy takomillashtirish.

Bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, mamlakatimiz tibbiy ta'lim tizimi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi, bitiruvchilarning xalqaro miqyosda tan olinishi va sog'liqni saqlash tizimining raqobatbardoshligi oshishi kutilmoqda.

Xulosa: Tibbiy ta'limda klinik o'quv bazalarining ahamiyati beqiyosdir. Ular nafaqat nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi, balki talabalarni kasbiy jihatdan yetuk, mas'uliyatli va mustaqil mutaxassis sifatida tayyorlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Klinik o'quv bazalarini xalqaro standartlarga moslashtirish bugungi kunda zaruratdan ko'ra, majburiy ehtiyojga aylanmoqda. Chunki global miqyosda tibbiyot sohasida raqobat ortib borayotgan bir paytda, ta'lim sifati va klinik amaliyot darajasining xalqaro mezonlarga mosligi tibbiyot oliygohlarining nufuzi va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Xalqaro tajriba shuni isbotlaydiki, klinik o'quv bazalarini modernizatsiya qilish o'quv jarayonining sifatini oshiradi, talabalarning amaliy ko'nikmalarini kuchaytiradi, ilmiy izlanishlar va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi, tibbiy ta'lim tizimini xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalash imkonini yaratadi. Shu bois, O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida klinik o'quv bazalarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tashkil etish, raqamli ta'lim tizimini joriy etish va o'qituvchilarning malakasini oshirish davlat miqyosidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5210-son qarori. — Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Tibbiy oliy ta'limda amaliy ko'nikmalarni baholash mezonlari". — Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Tibbiyot Akademiyasi. Klinik amaliyotda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanma. — Toshkent, 2021.

4. Karimova, D.A. “Oliy tibbiy ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.” Tibbiy ta’lim jurnali, №2, 2022.
5. Alimov, A.R. Tibbiy ta’limni modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2023.